

“TALABALARNING MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILI”

Muxamedova Guli Baxodirovna

O`zbekiston Respublikasida Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta`lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: *Bo'lajak pedagoglar – dunyoqarashini, mantiqiy tafakkurimizni shakllantirishda pedagogik omillarning ahamiyati. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish orqali talabalarda mustqil fikrlash va intellektual qobiliyatlarini ishga solgan holda ko'zlangan natijaga erishish.*

Kalit so'zlar: *oliy ta`lim, pedagogik faoliyat, reproduktiv metodlar, ijtimoiy fikrlash.*

Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek "Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarni ma'naviy dunyosini shakllantirishda o'qituvchi mehnatini qanchalik muhim o'rin tutishini yaxshi bilamiz. Chunki, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini, hayot maktabini uqtiradigan mo'tabar zotdir" degan edi. Shu boisdan ham bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglarga mantiqiy tafakkurni shakllantirish maqsadida talabalarga pedagog o'qituvchilarimiz tashkiliy, motivatsion, o'quv tafakkur va nazorat bosqichlaridan iborat pedagogik faoliyatni tashkil etishmoqda. Didaktik jarayonni tashkil etish pedagogik faoliyatimizda muhim va serqirrali jarayon hisoblanadi. Aynan bilish jarayonlari asosida bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy ongli, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanib boradi. Xuddi shuning bilan birga auditoriyada pedagog tomonidan tashkil etilgan har bir pedagogik jarayonni bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy shakllanishda ibrat rolini o'ynaydi. Keling, pedagogik faoliyat, uning tarkibiy qismlariga nazar solaylik. Pedagogik faoliyatda o'quv tafakkur faoliyati bosqichi pedagogik jarayonning "yadrosi"ni tashkil etadi. Ushbu bosqichda talabalarning o'zlashtirish darajasini ikki turga bo'lish mumkin. Bular: mahsuldor va nomahsuldor. Ularning bir-biridan farqi shundaki, nomahsuldor faoliyatida inson o'ziga ma'lum bo'lgan harakat (algoritim) qoidalaridan foydalanadi va bu jarayonda hech qanday yangi axborotlar yuzaga chiqmaydi. Faqat oldin o'zlashtirgan usullarni qaytadan ishlab chiqadi. Nomahsuldor bilan reproduktiv metodlar asosida shakllanib boradi. Masalan: mavzu bilan tanishish, gapirib berish, axborotga ega bo'lish. Bugungi kunda talabalar auditoriyasida ma'ruza, seminar mashg'ulotlarida reproduktiv metodlardan foydalanib kelinmoqda. Mahsuldor faoliyatni bajarishda talaba doimo yangilikka duch keladi yoki yangi axborotlar (yangi obyektlar hodisalar, jarayonlar, faoliyat metodlari, vujudga keladi har ikki faoliyat turli ham mustaqil ravishda yoki tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir yordamida bajariladi. Misol uchun nomahsuldor faoliyat ko'rsatma (yo'riqnoma, lug'at, ustoz) orqali yoki harakatlarni bajarish qoidalari to'g'risida boshqa bir axborot manbalari asosida, ya'ni ko'rsatmasiz, mustaqil ravishda bajariladi. Mahsuldor faoliyat ham ma'lum metodik ko'rsatmalar ostida bajarilishi mumkin, biroq bu yerda harakatlar ketma-ketligi, tartib-qoidalarini ayni vaziyatda yangilangan, (faqat ozi uchun) yoki hech kimga ma'lum bo'lmagan usullar vositasida amalga oshadi. Demak, bu yerda ham ikki faoliyat darajasini kuzatish mumkin: evristik va ijodiy.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni hisobga olgan holda talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish faoliyatini har qanday masalalarni yecha oladigan quyidagi to'rt darajaga bo'lishi mumkin:

1. daraja: tashqi ko'rsatma ta'siridagi harakat. Bu faoliyatni shartli ravishda TANISHUV darajasi deb nomlaymiz.
2. daraja: xotira asosidagi harakat. Bu faoliyatning ALGORITIM darajasi deb nomlaymiz.

3.daraja: nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning EVRISTIK darajasi deb nomlaymiz.

4.daraja: o'quv faoliyatining yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat. Bu faoliyatning IJODIY darajasi deb nomlaymiz.

Ta'lim jarayonini yuqori bosqichiga ko'tarish pedagogik faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Aynan, uzluksiz ta'lim tizimini pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan bosh maqsadi ta'lim jarayonini ijodiy bosqichga ko'tarishdan iborat. Binobarin. ta'lim jarayonida talabalar dunyoqarashini tarkib toptirish bilan uzviy bogliq. Dunyoqarash ta'lim jarayonida yuzaga keluvchi fikrlar majmuasi asosida yuzaga keladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash ijtimoiy - intellekt jarayon sifatida o'z motivi (harakatga undovchi kuch, ruhiy ehtiyoj), maqsadi, usullariga ega bo'lgan mustaqil faoliyat hisoblanadi. fikrlash ko'magida inson miyyasi yoki ruhiyatida aks etgan narsa va hodisalarning anglangan yoki anglanmagan jihatlari ayon bo'ladi. Fikrlashning o'zi shu yo'ldagi izlanishlar bilan boshqariladi. Fikrlash muloqotga kirishgan ikkinchi bir kishiga ta'sir ko'rsatishning zaruriy qismi, bir-birini bilishning asosi hamdir. Odam ruhiyati bilan shugullanadigan mutaxassislarining dalolat berishicha, inson fikrlash jarayonining asosiy shartlaridan biri - uning borliq so'zlarini bilishga bo'lgan intilishi, ichki ehtiyoji - motivdir. Usiz insonda fikrlash paydo bolmaydi. Fikrlovchi shaxs atrofida gilarining birgalikdagi mehnati. O'zaro muloqoti va hamkorligida shakllanadi, rivojlanadi.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, har bir kishiga, yoshidan qat'i nazar, zarurdir. Mantiqiy fikrlash qobiliyati sizni tezroq qaror qabul qilish, mantiqiy zanjirlar yaratish, turli ob'ektlar orasidagi munosabatlarni topish va natijani qisqa muddatda oldindan belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, har bir kishi boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning harakatlarining sabablarini aniqlay oladigan rivojlangan mantiqiy fikrlash orqali. Va bu tug'ma sovg'a emas, balki maxsus tadbirlar, o'yinlar va mashqlar orqali erishiladigan qobiliyatdir. Mantiqiy fikrlash - ongli ravishda, ilmiy nazariy asoslarga tayanib o'z - o'zini nazorat qilgan holda fikrlash demakdir. Vigotskiyning ta'biriga, fikrlashda mantiqning yo'qligi fikrlash jarayonida mustaqillikning erkinlikning yo'qligi demakdir. Talabalar mantiqiy tafakkur asosida mustaqil tafakkuri tarkib topa boradi. Demak mustaqil fikrlash insonning o'z oldida turgan muammo va vazifalarni belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalarga tayanib turli usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatdir. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning mantiqiy fikrlash jarayoniga pedagog uning pedagogik mahorati va o'quv dasturidagi predmetlar ta'sir ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin; bevosita harakat malakalari va ko'nikmalarini hosil qiluvchi predmetlar va oylashgan, tasavvur qilgan holda tushunishga majbur qiluvchi mavhumroq predmetlar. Qanchalik talabalar uchun ma'lumotlar ko'p bo'lsa, ular xilma-xil va bir-birini to'ldiruvchi bolsa, fikrlari to'liq tartibli va mantiqiy bo'lib boraveradi. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda fanlararo bog'lash, ularni umumlashtirish, tizimlashtirish, induktiv, deduktiv yondashish bo'lg'usi pedagoglarning mantiqiy tafakkurini tarkib topib borishida muhim ro'l o'ynaydi. Ta'lim jarayonining yuqori bosqichi talabalarda bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish asosida mustaqil bilim olish malaka, ko'nikmalarini tarkib toptirishdir. Talabalar mantiqiy tafakkurini tarkib toptirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim mazmuniga har tomonlama konseptual yondashish muhim ahamiyatga ega. Bunday ta'lim mazmunini o'rganishda falsafiy asosini aniqlash, reproduktiv o'zlashtirishdan ijodiy bosqichga ko'tarilish, hayot bilan bog'lash, aqliy faoliyatda analiz, sintez kabi mantiqiy operatsiyalarni bajarishga yo'naltirish, mantiqiy fikr tug'ilishiga zamin yaratadi. Talabalar mantiqiy tafakkurini tarkib topishida pedagoglarimizning ta'lim jarayonini mantiqiylikka asoslangan holda yoritib borishi, ilmiylik, uzviylik, tizimlilik, hayotiylik prinsiplariga tayanish ta'lim jarayonini muammolashtirish, modullashtirish va boshqa interfaol metodlar ustuvor hisoblanadi. Ta'lim jarayonida bolg'usi pedagoglarni ijodiy bilishiga yo'naltirish shaxs ongida bunyodkorlik g'oyalarini tarkib toptirishda zamin yaratadi, yuzaki bilish ijodiy bilishdan marhum etishni anglaydi, mustaqil ongli munosabatining shakllanishi bilim ekanligini tushunib yetadi. Demak, oliy oquv yurtlariga bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy shakllantirishda ta'lim jarayonini reproduktiv o'qitishdan produktiv (mahsuldor) darajagacha ko'tarish ijtimoiy zarurat

sifatida qarashimiz lozim. Binobarin, pedagoglarimiz kasbini shakllantirishda mantiqqa tanqidiy tafakkurni tarkib toptirmay o'quvchilarning mustaqil erkin tafakkurini shakllantirish mumkin emas. Talabalarda turli tomonlama tarmoqlanuvchi, bir vaqtning o'zida turli yonalishlarga tarqaluvchi, ko'plab yechim variantlarini yaratishga yo'nalgan divergent tafakkurni shakllantirish orqali kutilmagan natija va yechimlarga ega bo'lish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усербай, Б. (9102). Мустакил таълим - талаба билимининг асоси. Туркий халцлар фольклори, адабиётшунос уамда тилшуносликнинг ауамиятли масалалари: Халцаро конференция, 1(1), 105-108.
2. Кучкоров, (2020). Жавдат ва унинг Самарканд адабий хдетида тутган урни. ИНТЕРНАУКА, 13(142), 89-90.
3. Кучкоров, Х., Х., (2020). Личность в системе человеческих общение и педагогических взаимоотношений. Innovative achievements in science, 439-441.
4. Байкabilov, U. A. (2020). Та'limда innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari
5. Хдсанзода, К. Х. (2020). Жавдат ижодида панд-ахлоқ мавзуси ва унинг ёш авлод тарбиясидаги урни. Science and Education, 1(2).